



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

KORXONALARING KREDITGA LAYOQATLILIGI TAHLILI

Jumayeva Gulrukha Jurakulovna-QDTU,

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasи professori.

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalarining kreditga layoqatliligi tahlilining uslubiy jihatlari, xususan ekspert va scoring usullari yordamida kreditga layoqatlilik tahlilining uslubiy-amaliy jihatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kredit, biznes, foiz, muddat, ta’midot, baholash, layoqat, qoplash, likvid, moliyaviy mustaqillik, rentabellik, ekspert, scoring, ballar, monitoring.

ANALYSIS OF CREDIT WORTH OF ENTERPRISES

Jumayeva Gulrukha Jurakulovna-QDTU,

professor of the department of “Accounting and Auditing”.

ABSTRACT

This article describes methodological aspects of enterprise creditworthiness analysis, in particular methodological and practical aspects of creditworthiness analysis using expert and scoring methods.

KEYWORDS: credit, business, interest, term, supply, assessment, capacity, coverage, liquidity, financial independence, profitability, expert, scoring, points, monitoring.

KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiyotning erkinlashtirilishi tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish ko‘lamini kengayishiga olib keldi. Aynan ushu jarayonlarda yuridik va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatida qarz kapitaliga nisbatan ehtiyojning oshib borishi kuzatilmogda.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

Xususan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish va aholini o'ini-o'zi band qilishida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida imtiyozli kreditlarni ajratish borasida ham ijobjiy natijalarga erishilmoqda. Bunda tadbirkorlikni rivojlantirish davlat maqsadli dasturlari doirasida kreditlashning asosiy qismini 3 ta bank: AT Xalq banki, ATB "Agrobank" va ATB "Mikrokreditbank"da jamlanishi kreditlash tizimini yanada optimallashtirish, onlayn tarzda tezkor, shaffof, maqsadli va samarali tashkil qilish imkoniyatini bermoqda.

Tahlillar ko'rsatadiki, korxona va tashkilotlarning biznes loyihalari va biznes rejalariga asosan kredit mablag'larini ajratish salmog'i ham yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu jarayonlarda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlarda mijozning kreditga layoqatlilagini to'g'ri aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJA. Tahlillardan ko'rindan, milliy iqtisodiyotimiz bank sektori 31 ta bankdan iborat bo'lib, ularda kreditlash masalasi bank ishining o'zagini tashkil etadi. Ma'lumki, kreditlash muddatiga ko'ra, uzoq va qisqa muddatli kredirlarga ajratiladi. Ammo, kreditlarning uzoq, qisqa muddatlar bo'yicha tarkiblanishi qarz munosabatlarini rasmiy jihatlariga ta'sir etmaydi. Ya'ni har ikkala holatda ham mijozning kreditga layoqatligini aniqlashda moliyaviy holat tahlili bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirdilar asosida amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli kreditlar -uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan bir yildan ortiq muddatga berilsa, qisqa muddatli kreditlar -joriy, aylanma aktivlarni to'ldirishga. savdo hajmini oshirishga va boshqa maqsadlarga bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.

Korxonalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes rejaga va investitsion loyihalarga e'tiborni qaratish bilan bir qatorda korxonaning moliyaviy ahvoli, kreditga layoqatliligi o'rganilishi zarur.

Chunki, jalb qilinadigan kredit resurslariga nisbatan, har qanday puxta ishlangan biznes reja, yoxud investitsion loyiha, garov ta'minotidan oldin, korxonaning moliyaviy ahvolini o'rganish, kreditni qaytara olish imkoniyati, kredit xatari ya'ni kredit risklarini baholash zaruriy shart hisoblanadi. Amaliyotda korxonaning kreditga layoqatligini aniqlashda uning moliyaviy ahvolini umumiyligi ko'rsatkichlar



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

asosida tahlil qilish uslubiyoti mavjud bo‘lsada, kredit risklarini baholashning aniq analitik yechimlari bo‘yicha uslubiy jihatlar belgilanmagan.

Amalda kredit arizasi bergan korxonaning kreditga layoqatligi tahlilida asosiy e’tibor korxonaning hisobot davri ma’lumotlari asosida moliyaviy tahlilning muhim ob’yekt sifatida birinchi navbatda uning to‘lov layoqati, qoplov koeffitsenti, moliyaviy mustaqilligi aniqlanadi. Ammo, bunda joriy davr ma’lumotlari asosida bozor konyukturasining, valyuta paretetining tez o‘zgaruvchanligi baholanmaydi. Afsuski, so‘ngi vaqtarda tijorat banklaridan olingen ba’zi kredit resurslarining o‘z vaqtida, yoxud qaytmaslik holatlariga ko‘p duch kelinmoqda. Shu sababli ham korxonalarining kreditga layoqatligini tahlil etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish talab etiladi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, har bir tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi, ya’ni kredit siyosati korxonalarining kreditga layoqatliligin o‘rganishning uslubiy asosi hisoblanadi.

Chunki, tijorat banki kredit siyosatida korxonalarining kreditga layoqatliligin o‘rganishning uslubiy asosi sifatida uning kreditni to‘lash qobiliyatini hisoblashga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, bunda asosan kreditga layoqatlikni aniqlashning ekspert usuliga asoslaniladi. Aynan, korxonalarining kreditni to‘lash qobiliyatini hisoblash va kredit riski, tavakkalchilikni baholashda Skoring tahlil tizimidan belgilangan talablar asosida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, scoring baholash uslubi o‘ziga xos tizim ko‘rinishida bo‘lib, amaldagi ekspert tahlil usulidan farq qiladi. Bu tizimda korxonalarining kreditga layoqatliligin aniqlovchi ko‘rsatkichlar soni chegaralanmaydi va har bir tijorat banki tomonidan xizmat ko‘rsatadigan mijozlari faoliyatining o‘ziga xos tomonlari, xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Ammo, ushbu uslubiyotda ham kreditga layoqatlilikning zarur majburiy ko‘rsatkichlari sifatida milliy iqtisodiyotimizda kreditni qoplash koeffitsenti, likvidlilik va o‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlik (mustaqillik koeffitsenti) kabi ko‘rsatkichlar tizimidan faqat ballar hisobi ko‘rinishida foydalanilmoqda. Ushbu holat kreditga layoqatlilikning samarali usuli sifatida xalqaro moliyaviy tahlilda tan olingen scoring tahlil tizimidan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi. Chunki, bu ko‘rsatkichlar korxonaning hisobot davri bo‘yicha tuzilgan buxgalteriya balansi



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

ma'lumotlariga asoslanganligi uchun ham risk darajasini to'lq ochib berish imkoniyatini yuzaga chiqarmaydi.

XULOSA

Ma'lumki, korxonalarning kreditga layoqatligini aniqlash va tahlil etishda moliyaviy holat tahlil qilinadi. Afsuski, korxonaning kreditga layoqatligi tahlili faqat hisobot davri ma'lumotlari asosida kreditni qoplash darajasini aniqlash, yoxud kredit monitoringlarida faqat kreditning maqsadli ishlatilishini tekshirish bilan chegaralinib qolmasdan, korxonaning bugungi va istiqboldagi rivojlanish salohiyati hamda imkoniyatlarini ham uzlusiz o'rganib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda faqat umumiy tavsifdagi ko'rsatkichlargagina asoslanib qolinmasdan quyidagi qo'shimcha mezonlarni ham amaliyotda hisob-kitob qilib, aniqlab borish tavsiya etiladi;

- korxonalarning rentabellik darajasi;
- aylanma mabalag'larning holati;
- o'z mablag'larini hajmi, ularning asosiy va aylanma kapitalidagi ishtiroki;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o'sish darajalari;
- to'lov muddati kelgan va o'tib ketgan debtorlik, kreditorlik majburiyatlarining holati;
- korxonalarning pul va qimmatli qog'ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlariga ahamiyat qaratish.

Bugungi kunda kreditga layoqatlik tahlilining maqsadi - korxonalarning kredit, qarz mablag'larini jalgan etishi yuzasidan ularning moliyaviy holati va natijalarini tahlil etish orqali pul mablag'larini ko'paytirish imkniyatlarining joriy va istiqbolli tahlilini amalga oshirishdan iborat bo'lishi kerak.

Korxonalarning kreditga layoqatligini baholashda tahlil oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- korxonalarning kreditga layoqatligini davriy oraliqlar bo'yicha uzlusiz o'rganib borish;
- korxonalarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar va kapital foydalilagini baholash;
- mablag'larni joylashinuvdagini holat, ularning aylanuvchanligini baholash;



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

➤ muddati o‘tgan majburiyatlarning holati, korxonalarining moliyaviy mustaqillik darajasidagi o‘zgarishlar, sotish hajmidagi o‘sish, likvid mablag‘larning holati kabi qo‘sishmcha ko‘rsatkichlarga baho berish.

Kreditga layoqatlikni tahlil etishning darjasasi va sifati axborot manbalarining to‘liqligiga va ularning atroflicha o‘rganilishiga bog‘liqligini inobatga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni (Yangi tahrir). 2019 yil 5 noyabr O‘RQ-580. <http://lex.uz/docs/4581969>
2. O‘zbekiston Respublikaci Markaziy bankining “Banklarning hicob ciyocati va moliyaviy hicoboti to‘g‘ricida”gi 1270 - conli Nizom 2003 yil 3 centyabr
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Raximov M. Iqtisodiyot sub`ektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.; Iqtisod-Moliya, 2015. -392 b.